

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 4

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 4

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR
Shuhrat Sirojiddinov
 BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI
Karomat Mullaxo'jayeva
 MAS'UL KOTIB
Ozoda Tojiboyeva
 TAHRIR HAY'ATI
Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Bahriddin Umurzoqov	
Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning voizlik, xattotlik va kotiblik faoliyati	4
 ADABIYOTSHUNOSLIK	
Dilnavoz Yusupova	
Fanoyi Sheroziy "Tarixi muluki Ajam" asarining usmonli tarjimoni sifatida	16
Marg'uba Abdullayeva	
"Maqsad ul-atvor" dostoni va uning g'oyaviy- badiiy xususiyatlari	29
 LINGVISTIKA	
Tanju Seyhan	
Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	42
To'lqin Tog'ayev	
Ashurali Zohiriy – jadid matbuotining atoqli vakili	63
Ma'rufjon Dustmurodov	
Uyg'ur xoqonligiga oid Qarabalg'asun II bitigi: leksik birliklarning badiiy funksiyasi	76
 MATN	
Aftondil Erkinov	
"Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy" dagi "Ohista-ohista" radifli g'azallar	140

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
 DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
 EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
 EDITORIAL BOARD	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Nazif Shahrani (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Mukhammadjan Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkey)	
Kasimjan Sadikov	
Zulkhumor Kholmanova	
Mustafa O'ner (Turkey)	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Kimura Satoru (Japan)	
Imran Ay (Turkey)	
Aftondil Erkinov	
Nadir Mamadli (Azerbaijan)	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bulent Bayram (Turkey)	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	
Oysara Madalieva	
Hilola Nazirova	

CONTENTS	
TEXTOTOLOGY	
Bahriddin Umurzoqov	
Ali Safi Kashifi Hiravi's Activities as a Preacher, Calligrapher, and Scribe	4
 LITERATURE	
Dilnavoz Yusupova	
Fanoyī Shīrāzī as the Ottoman Translator of Tārīkh-i Mulūk-i 'Ajam	16
Marguba Abdullaeva	
The Epic "Maqsad ul-Atvor" and its Ideological and Artistic Characteristics	29
 LINGUISTICS	
Tanju Seyhan	
The Function of Verbs in the Stylistic Framework of Ali Shīr Navā'ī	42
Tulkin Togaev	
Ashurali Zohiri is a Prominent Representative of the <i>Jadid</i> Press	63
Ma'rufjon Dustmurodov	
Karabalgasun II Inscription of the Uygur Khaganate: literary Function of Lexical Units	76
 TEXT	
Aftondil Erkinov	
Ghazals with the refrain "Ohishta-ohishta" in "Majmuat ush-shuarayi Firuzshahi"	140

ADABIYOTSHUNOSLIK
LITERATURE**Fanoyi Sheroziy “Tarixi muluki Ajam”
asarining usmonli tarjimoni sifatida**Dilnavoz Yusupova¹**Abstrakt**

Maqolada Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarining XVI asrda usmonli turk tiliga Fanoyi Sheroziy tomonidan qilingan tarjimasi masalalari tadqiq etilgan. Maqola muallifi Fanoyi taxallusli ijodkor haqidagi uchta farazni oʻrtaga tashlaydi va asar nusxalari asosida buni dalillashga urinadi. “Tarjumayi tavorixi muluk” asarining fanga sakkizta nusxasi maʼlum va ulardan yettitasi qoʻlyozma, bittasi matbaa nashr – toshbosmadir. Bu nusxalarning eng qadimgisi 989/1581-yilga tegishli. Tarjimaning asl – tarjimon nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Hozirgacha mavjud nusxalar tarjimon nusxasidan koʻchirilgan. Muallif Alisher Navoiy asari matnini Fanoyi amalga oshirgan tarjima matn bilan qiyoslab, matndagi farqli jihatlarni aniqlaydi. Fanoyi tarjimasida asliyat matni asosan saqlab qolinganligi, baʼzi maʼlumotlarning qoʻshilishi yoki ayrim oʻrinlardagi qisqartirishlar tarjimonning oʻziga yoki matnni koʻchirgan xattotlarga tegishli boʻlishi mumkinligi xususidagi mulohazalarini bildiradi.

Kalit soʻzlar: *adabiy taʼsir, tarjima, qoʻlyozma nusxalar, matbaa nashr, shohlar tarixi.*

Kirish

Alisher Navoiyning nomi va asarlari hayotlik chogʻidayoq turkiy va forsiy dunyoda mashhur edi. Ayniqsa, uning Usmonli turk adabiyotiga taʼsiri masalasi oʻzbek va jahon olimlari tomonidan eʼtirof etilgan va bu borada koʻplab tadqiqotlar yaratilgan [Levend 1958; Çetindağ 2002; Kleinmichel 2006; Esir 2014; Türk 2021; Yusupova 2021]. Shoir asarlari tilini tushunishga boʻlgan intilish usmonli turk tilida “Abushqa” lugʻatining tuzilishiga olib kelganligi, Navoiy asarlarini mutolaa etish, tarjima qilish va badiiy ijodda uning asarlariga ergashish XVI–XX asrlar mobaynida ham

¹ Yusupova Dilnavoz Rahmonovna – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: mumtoza_dil@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-9955-0891

Iqtibos uchun: Yusupova, D. R. 2025. “Fanoyi Sheroziy “Tarixi muluki Ajam” asarining usmonli tarjimoni sifatida”. *Oltin bitiglar* 4: 16 – 28.

davom etganligi Usmonlilar saltanatida shoir asarlariga talabning yuqori bo'lganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy ijodining Usmonli turk adabiyotiga ta'sirini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: I. Buyuk mutafakkir asarlariga ergashib, asar yozish. II. Shoir asarlarining usmonli turk tiliga tarjimalari. Birinchi guruh o'z ichida yana uch yo'nalishni qamrab oladi: 1) shoir she'rlariga nazira va tazminlar yozish; 2) tazkirachilik yo'nalishidagi ta'sir; 3) "Xamsa" dostonlariga javob yozish.

Shoir asarlarining usmonli turk tiliga tarjimalari masalasi adabiyotshunoslikda u qadar keng tadqiq etilgan emas. Hozirgacha Navoiyning uchta asari usmonli turk tiliga tarjima qilingani haqida ma'lumotlar mavjud. Bular – "Majolis un-nafois" [Turk2010], "Farhod va Shirin" [Esir 2014] hamda "Tarixi muluki Ajam" asarlaridir. "Tarixi muluki Ajam" XVI asrda Fanoyi tomonidan tarjima qilingan bo'lib, o'zbek va turk adabiyotshunosligida bu tarjima haqida ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan [Salohiy 2006; Altun 2020]. Mazkur tarjima adabiyotshunoslikda "Tarixi Fanoyi" (Tarih-i Fenâyî) yoki "Tarjumayi tavorixi muluk" (Tercüme-i Tevârîh-i Mülûk) nomi bilan atab kelingan.

Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asari va uning yozilish tarixi

"Tarixi muluki Ajam" ("Arab bo'lmagan shohlar tarixi") asari Alisher Navoiyning tarixnavislik faoliyatini ko'rsatuvchi manba bo'lib, XV asrning oxirlarida yozilgan. Aslida, bu asar "Tarixi anbiyo va hukamo" bilan birga umumiy tarix kitobining bo'laklari hisoblanadi. Navoiy yashagan davr tarixshunosligi an'anasiga ko'ra, avval payg'ambarlar tarixi, so'ngra to'rt Ajam sulolalari tarixi, keyin Islom davri tarixi berilishi lozim edi. Shundan keyingina zamona tarixiga o'tilgan va Navoiy ushbu qismlardan so'ng Sulton Husayn Boyqaro tarixini yozishni niyat qilgan edi [Qayumov 2011].

"Tarixi muluki Ajam"da Eron va Turon mulkida hukmronlik qilgan to'rt sulola: peshdodiylar, kayoniylar, ashkoniylar, sosoniylar tarixi hikoya qilinadi. An'anaga muvofiq, tarix Odam Ato (a.s.) davriga bog'liq ravishda talqin qilinadi. Alisher Navoiy mazkur asarda Abdulxayr Nosiriddin Abdulloh bin Umarning "Nizom ut-tavorix", Banokatiyning "Jome' ut-tavorix" va "Devon un-nasab", Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliyning "Nasihah ul-muluk", peshdodiylar podshohi Hushangga nisbat beriluvchi "Jovidoni xirad", Bu Ali Miskavayhning "Odob ul-arab val-furus", Hamdulloh

Mustavfiy Qazviniyning “Tarixi guzida”, Sharafiddin Ali Yazdiyga nisbat beriluvchi “Muntaxab” kabi manbalardan foydalanadi va ko‘plab ma’lumotlarni shu asarlardan olganini aytib o‘tadi. Risolada shoirlardan Abulqosim Firdavsiy va uning “Shohnoma”siga ko‘proq murojaat qilinadi. Navoiy Iskandar haqidagi qissada xamsanavislar Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviyning qarashlarini ham keltirib o‘tadi.

Asarning asosiy qismi Kayumars ta’rifi bilan boshlanadi. So’ngra peshdodiylar sulolasidan o’n bitta, kayoniylar sulolasidan to‘qqizta (Iskandarni ham qo‘shib hisoblaganda o‘nta hukmdor), ashkoniylar sulolasidan o’n beshta, sosoniylar sulolasidan o‘ttiz uchta, jami – yetmish hukmdorning nomi, ularning tarjumayi holi, hayoti va yuritgan siyosatiga doir ma’lumotlar taqdim etiladi. Deyarli har bir podshoh qissasidan keyin an’anaga muvofiq “she’r”, “bayt” yoki “masnaviy” nomi ostida qissa mazmuniga uyg‘un baytlar ilova qilinadi.

Asarning xotima qismi masnaviy shaklida yozilgan bo‘lib, ellik baytdan iborat. Unda Navoiy bevosita Shoh G‘oziy – Sulton Husayn Boyqaroga murojaat etadi. Uning adolati va saxovatini, inson sifatidagi yuksak xulqini madh qiladi. Shohni yagona javharg qiyoslaydi, shuning uchun ham unga “Nazm ul-javohir” asarini bag‘ishlab yozganini aytadi. Aynan Husayn Boyqaro tarixini bitishi haqidagi niyatini bildiradi:

*Vale azmim emdi budurkim, Xudoy
Agar bo‘lsa umrumg‘a muhlatfizoy,
Chekib turfa tarixingga xomani,
Qilib nuktag‘a tez hangomani.*

Shu tariqa xotima-masnaviyning so‘nggi baytlarida Navoiy shohsiz jahonga omonlik bo‘lmasligini aytib, Husayn Boyqaroga yaxshi tilaklar bildiradi, duosini yo‘llaydi, o‘zi ham duolardan umidvor bo‘lgan ohangda asarni yakunlaydi.

Asarning tarjimoni Fanoyi haqida

“Tarixi muluki Ajam” asarining tarjimoni Fanoyi haqida manbalarda deyarli ma’lumot uchramaydi. O’sha davrga oid tazkira va tarixiy asarlarda ham tarjima muallifining nomi keltirilmagan. Tarjimaning tanqidiy matnini nashrga tayyorlagan Hilal Oytun Altunning yozishicha, Qohira nusxasidagi qaydlar orasida “Mü’ellif-i in kitāb Monlā Fenāyī rahmetullāhi ‘aleyh” (Ushbu kitobning muallifi mulla Fanoyi rahmatullohi alayh) degan izoh mavjud. Shuningdek, “Monlā Fenayiy” (mulla Fanoyi) nomi Leyden

universiteti kutubxonasi turk qo'lyozmalari katalogiga kiritilgan qo'lyozmaning izohida ham uchraydi [Altun 2020, 27]. Muallif taxallusidan oldin keltirilgan *mulla* sifati tarjimonning diniy ilmlardan yaxshi xabardor olim va tariqat sohibi bo'lganligiga ishoradir.

"Tarixi muluki Ajam" asari haqida ayrim ishoralar keltirilgan ikki tadqiqotda muallifning nisbasi Sheroziy sifatida ko'rsatiladi, lekin uning kimligi, boshqa tarjimalari yoki asarlari haqida ma'lumotlar keltirilmaydi [Altun 2020, 27].

Turk olimi Sodiqliq Yozarning "Anadolu sahasi klâsik türk edebiyatında tercüme ve şerh gelenegi" ("Onado'li klassik turk adabiyotida tarjima va sharh an'anasi") mavzusidagi tadqiqot ishida XVI asrda, usmonlilar sultoni Mehmed Uchinchi davrida yashagan Fanoyi taxallusli tarjimon haqida ma'lumot berilgan [Yazar 2011, 194]. To'liq ismi Xizr bin Hoji Yunus bin Imod bo'lgan bu ijodkor Faxriddin Iroqiyning "Lama'ot" asarini usmonli turk tiliga tarjima qilgan. Tarjimaning kirish qismida muallif o'zini "... ve ba'de bu müsâfir-i bî-zâd ...Hızır b. Hâcî Yûnus b. 'Îmâd el mülakkab bi-Seyyid Fenâyî Mağnisevî..." (va bu musofir Sayyid Fanoyi Mag'nisaviy taxallusli Xizr bin Hoji Yunus bin Imoddir) deb tanishtirgandan so'ng, zamona hukmdori Sulton Mehmed bin Murod (Mehmed III) va Mahmud poshoni madh etadi. Iroqiy asarining tarjima qilinish sababini izohlar ekan, o'zining ancha vaqt Shayx Ahaveynning xutbalariga ergashib, saboqlariga qatnashganini, bu majlislarda Haq oshiqlarining "Lama'ot"ni tinglash vaqtida arab va fors tillarini bilmaganlikari uchun yetarlicha foyda olmayotganlarini ta'kidlaydi va buni bartaraf etish uchun asarni tarjima qilib, sultonga taqdim etish niyatiga tushadi. Muallifning forsiy tilni yaxshi bilganligi va tariqatga mansub ekanligi uning yuqorida tilga olganimiz mulla Fanoyi bilan ayni bir shaxs bo'lishi mumkin degan farazga olib keladi.

Shu davrda yashab, Fanoyi taxallusi bilan ijod qilgan shoirlardan yana biri – turk olimi A. Yildizning "Divan Edebiyatında Fenâyî Mahlaslı Şairler" (Devon adabiyotida Fanoyi taxallusini olgan shoirlar) tadqiqotida keltirilgan. Aniqrog'i, ushbu tadqiqotda Fanoyi taxallusli sakkiz nafar shaxs haqida ma'lumot beriladi. Ammo ulardan faqat bittasi bevosita "Tarixi muluki Ajam" tarjima qilingan davrda yashab, faoliyat yuritgan. Fanoyi Dede (vaf. 1519) taxallusli bu ijodkor Lazkiya shahri shayxi Foni Dedening (vaf. 1504) o'g'li bo'lib, mavlaviya tariqatiga mansub edi. Esrar Dedening *Tezkire-i Şu'arâ-yı Mevleviyye* asarida keltirilishicha, Fanoyi Dede "Şiir ve inşâda oldukça maharetli olup vaktinde şâir-i zor-âverdir" (she'r

va insho ilmida yetarlicha mahoratli bo'lib, o'z davrida fasohatli shoir – D.Y.) bo'lgan [Dede 2000, 421 – 424]. Tazkirada uning bitta forsha va bitta turkcha g'azalidan namuna keltirilgan. Ushbu ijodkorning “Tarixi muluki Ajam” asarini ko'chirgan Fanoyi bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Shuningdek, bu davrda yashagan yana bir Fanoyi taxallusli ijodkor Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlardan biridir. U “Xamsa”ning to'rtinchi dostoni “Sab'ai sayyor”ni 1529 – 30-yillari kitobat qilgan. Qo'lyozma hozirgi kunda Boku shahridagi O'zFA qo'lyozmalar institutida, B 5078-raqami ostida saqlanadi. Hajmi 146 varaqdan iborat [Hakimov 1991, 18]. Agar bu xattotning Navoiy asarlaridan xabardorligi hamda ozar turklariga aloqadorligini hisobga olsak, Navoiy asarini tarjima qilgan shaxs u bo'lishi mumkin, degan taxmin yuzaga keladi.

Demak, ko'rinadiki, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarini XVI asrda usmonli turk tiliga tarjima qilgan Fanoyi taxallusli shaxs yuqorida tilga olganimiz uch Fanoyidan biri bo'lishi mumkin.

Asarning nusxalari haqida

“Tarjumayi tavorixi muluk” asari bizgacha sakkiz nusxada yetib kelgan. ularning yettitasi qo'lyozma, bittasi matbaa nashr, ya'ni toshbosma [Altun 2020, 59]. Qo'lyozma nusxalar: Qohira, Madrid, Bolonya, Gaziantep, Vena, Fotih, Chanqiri nusxalaridir. Toshbosma usulidagi nusxa 1785-yili Vena shahrida nashr etilgan va uning bir donasi hozirgi kunda Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining nodir kitoblar bo'limida saqlanmoqda.

Qo'lyozma nusxalardan faqat ikkitasi, ya'ni Bolonya va Gaziantep nusxalarida ko'chirilish sanasi qayd etilgan. Asarning ko'chirilish davriga ko'ra eng qadimiysi Bolonya nusxasi bo'lib, mazkur nusxada matnning ko'chirilish sanasi 989/1581-yildir¹. Gaziantep nusxasida esa 1008/1599-yil deb ko'rsatiladi. Madrid nusxasida qo'lyozmaning ko'chirilish yili qayd etilmagan, ammo matnning oxirgi sahifasi 24b tomonining pastki o'ng burchagidagi muhr ostida g'ira-shira 1055/1645 sanasini o'qish mumkin. Hilal Altunga ko'ra, Fanoyi tarjimasining asl matni, ya'ni birinchi tarjima bizgacha yetib kelmagan. Yuqoridagi nusxalar muallif tarjimasi asosida ko'chirilgan noma'lum nusxa asosida amalga oshirilgan.

¹ Asarning ushbu nusxasi haqida ma'lumot bergan D.Salohiy bu sanani milodiy 1640/41-yil deb ko'rsatgan [Salohiy, 2006].

Oohira va Madrid nusxalari nasxda; Fotih, Vena, Chanqiri nusxalari ta'liq; Gaziantep nusxasi arab nasx yozuvida, Bolonya nusxasi nasx yozuvida ko'chirilgan. Barcha nusxalarda har bir sahifaga o'n to'qqiz satr matn joylashtirilgani holda Bolonya nusxasi o'n besh qatordan iborat matnni o'z ichiga oladi.

Nusxalar o'rtasidagi munosabatlarga ko'ra, kamida ikkita nusxa bizgacha yetib kelmagan yoki hanuz topilmagan. Ulardan biri tarjimon nusxasidir. Tarjimon nusxasidan ko'chirilgan nusxalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh Qohira va Madrid nusxalari bo'lib, ular Chag'atoy tilidagi asl matnga til va imlo nuqtayi nazaridan yaqinroqdir. Ikkinchi guruh esa noma'lum nusxadan ko'chirilgan Bolonya guruhi bo'lib, qolgan nusxalar shu nusxa asosida kitobat qilingan va ulardagi matnda Onado'li turkchasining yetakchilik qilishi kuzatiladi [Altun 2020, 62]. Demak, yo'qolgan nusxaning ikkinchisi Bolonya guruhiga asos bo'lgan noma'lum nusxadir.

"Tarjumayi tavorixi muluk" asarining muqaddima qismida muallif mazkur asarni tarjima qilish sababini bir majlisda yig'ilgan taniqli kishilarning iltimosi bilan izohlaydi:

"...bu faqr ehlinuñ hāk-i pāyī ve fenā deştinüñ bâdiye-peymāyī, yanī faķīr ü haķīr Fenāyī, bir gün Hazret-i Mir Ali Şīr Nevāyī'nüñ Tevārīh-i Mülūk adlu risālesini bir şāhib-devletüñ meclis-i şerīfine tuhfē ve maḥfil-i münīfine hediyye arz eylemişdi. Çün ol ālī-şānuñ iltifāt nazarlarıyla müşerref olup birkaç varak mütālaa olundukda ṭab-ı şerīflerine gāyetde maṭbūve dil-pezīr ve nihāyetde mergūb ve bī-naẓīr gelüp fevka'l-ḥadd istiḥsān ve taḥsīn buyurdılar. Ve ol meclisde ḥāzır olan aşḥābdan bazı istimāından zevk-nāk olup, ol şāhib-devletden iltimās eylediler ki bunı bir kişi Türkī üslūbı üzre imlā édüp Türkī tabīr eyleye; tā her kişi feḥvāsını fehm édüp mütālaa asından mahzūz ve behre-mend ola" ("...bu faqirlar ahlining oyog'i ostidagi tuproq va fanolik sahrosining kezib yuruvchisi, ya'ni faqir va haqir Fenoyi bir kuni Hazrati Mir Alisher Navoiy qalamiga mansub "Tavorixi Muluk" nomli risolani bir davlat egasining sharaflı majlisiga tuhfa va ulug' majlisiga hadya sifatida taqdim etgan edi. Ushbu oliy martabali zotning iltifotli nigohlari bilan musharraf bo'lib, risolaning bir necha varag'i mutolaa qilingach, u zotning tab'iga nihoyatda ma'qul, ko'ngilga yoqarli, nihoyatda manzur va tengsiz bo'lib tuyuldi hamda haddan ziyod maqtov va tahsinga sazovor bo'ldi. Shuningdek, o'sha majlisda hozir bo'lgan ayrim kishilar uni tinglashdan zavqlanib, davlat egasidan iltimos qildilarki, bu asarni bir kishi turkiy uslubda imlo qilib, turkiy iboralar bilan bayon etsin;

toki har bir kishi uning mazmunini anglab, mutolaasidan bahramand bo'lsin").

Afsuski, bunda muallif shaxslar nomi, majlis bo'lib o'tgan hudud va voqea sanasini keltirib o'tmagani uchun majlisdagi taniqli kishilar, tarjimonning aniq shaxsi va tarjima amalga oshirilgan yil noma'lum bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda yana bir jihatni ta'kidlash lozim. Asarning Qohira va Madrid nusxalarida Fanoyi turk tilini (Onado'li turkchasini) yaxshi bilmasligi, lekin ulug'larning iltimosini yerda qoldirmaslik uchun asar tarjimasiga kirishganini g'oyat kamtarlik bilan bayon etadi:

"Ol h  zret da   bunlaru   iltim  sını kab  l ve mak  s  dını hu   le mev   l k  lup, ol h  zmeti yine bu bendeye hav  le eylediler. Fak  r da   bin  en al   i   retih  l-  liye, b  -v  c  d-ı biz  at-i   al  l ve n     a-yı al  l, hen  z T  rkce bilmez-iken kend  yi T  rk  e bil  r zum   d  p... bu k  st   hl  ga i  d  m ve bu b  -edeb  ne va  a iltiz  m eyledi. Fuz  l  nu   fa  zla-i i    nından merc   ve m  teva       dur ki, bu ha    r    edebsizliğini maz  r ve oran   bir aybını d  men-i     fetleriyle mest  r buyurup gala   v    olan y  rleri i  l  h eyleyeler" ("O'sha hazrat ham ularning iltimosini qabul qilib, maqsadlarining ro'yobga chiqishini ta'minlab, mazkur xizmatni yana shu bandaga topshirdilar. Bu faqir ham oliy ishoratlariga binoan, ozgina salohiyat va zaif bir nusxa mavjud bo'lishiga qaramay, hali turk tilini bilmas ekan, o'zini go'yo turk tilini biladigandek tutib... bu jasoratga qo'l urdi va bu adabsizona vazifani zimmasiga oldi. Fazilat egalari o'z fazl-u ehsonlaridan marhamat ko'rsatib, bu haqirning adabsizligini uzrli deb bilib, undagi ayrim kamchiliklarni o'z muruvvat etaklari bilan yopib, xato bo'lgan joylarni isloh qilsalar, degan umid va intizorda turur").

Qizig'i shundaki, Fanoyining Anadolu turkchasini bilmasligi faqat Qohira guruhiga mansub nusxalarga kiritilgan, ikkinchi guruh qo'lyozmalarda bu ma'lumot uchramaydi. Hilal Altunga ko'ra, Fanoyi asarni ikki bosqichda tarjima qilgan. Birinchi bosqich tarjimaning Qohira va Madrid nusxalari matnini o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich esa Bolonya guruhidagi nusxalar bilan bog'liq. Ehtimol sifatida shuni aytish mumkinki, Fanoyi tarjimaning ilk variantini shaxsan o'zi qayta ko'rib chiqib, keyingi variantda Onado'li turkchasini yaxshi bilmasligi bilan bog'liq qismni olib tashlagan, matndagi chig'atoycha imlo va til unsurlarini kamaytirishga harakat qilgan.

Hilal Altun asl matnni tarjima bilan solishtirar ekan, shunday yozadi: Madrid va Qohira nusxalarida mavjud bo'lgan va

boshqa nusxalarga kiritilmagan "Turk tilini bilmasa ham bu ishni o'z zimmasiga oldi" iborasidan tarjimonning Onado'li turkchasini keyinroq o'rgangani tushuniladi. Tarjima qilgan kitobining manba tilini qanchalik bilishi borasida hech qanday muammoning yo'qligi Fanoyining ona tili chig'atoy tili bo'lganligi va muallifning o'zi sharqiy turklardan ekanligiga kuchli dalildir" [Altun 2020, 51]. Madrid va Kohira nusxalarida boshqa nusxalarga qaraganda sharqiy turkchadan kengroq foydalanilgan. Hilal Altun tanqidiy matn uchun Qohira guruhidagi tahrir qilinmagan matnni asos qilib oladi. Chig'atoycha manba sifatida "Tavorih-i Muluk-i Acem"ning "Fotih" nusxasidan, tarjimalar uchun esa Qohira nusxasidan foydalanadi.

Asar nomi turli nusxalarda turli nomlar bilan keltirilgan: *"Tevarih-i Muluk-i Acem"*, *Târîh-i Fenâyi* (Vena nusxasi). *"Risalat at-tavorix"* (Bolonya nusxasi), *"Târîh-i Mülûk-i Nevâyî Tercüme-i Fakîr Fenâyî"* (Fotih va Chankiri nusxalari).

"Tarixi muluki Ajam" va "Tarjumayi tavorixi muluk" bilan bog'liq ayrim muqoyasalar¹

Mutarjim matnni usmonli turk tiliga tarjima qilish jarayonida asliyatdagi matnni asosan so'zma-so'z o'girishga harakat qilgan. Biroq vaqt-vaqti bilan ayrim o'rinlarda o'zgarishlar ham ko'zga tashlanadi. Bular: matnga ba'zi ma'lumotlarni qo'shish, ba'zi faktik ma'lumotlarni o'zgartirish, ba'zan esa ayrim o'rinlarni qisqartirish bilan bog'liq o'zgarishlardir. Ushbu o'zgarishlarning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

- Fanoyi asarida qisqacha muqaddima mavjud bo'lib, unda Allohga hamd, Payg'ambarga na't va asarning tarjima qilinish sababi bayon qilinadi. Keyin "Og'ozi kitob" sarlavhasi ostida asosiy matn boshlanadi.

- Podshohlar nomida ayrim o'rinlarda farqlar kuzatiladi. Masalan, ashkoniylarning 14-hukmdori Navoiy asarida *Yalosh binni Yalosh* nomi bilan, Fanoyi tarjimasida esa *Fîrûz bin Erdevân* nomi bilan keltiriladi.

- Tarixiy asarlarda keltirilgan sulolalar va podshohlar bilan bog'liq ma'lumotlar tarjimada bir oz farqli yoki qisqartirilgan holatda tarjima qilingan. Masalan, ashkoniylar sulolasiga mansub

¹ Biz bu o'rinda qiyos uchun "Tarixi muluki Ajam"ning L.Xalilov tayyorlagan tanqidiy matnidan foydalandik. Ayrim o'rinlarda Fransiya Milliy kutubxonasida Surrl. turc. 316-317 raqamlari ostida (xattot Ali Hijroniy) va Istanbul shahridagi To'pqopi-Revan kutubxonasida 808 raqami ostida saqlanayotgan (xattot Darvesh Muhammad Toqiy) Navoiy kulliyoti tarkibidagi "Tarixi muluki Ajam" asari qo'lyozmalariga ham murojaat qildik.

podshohlarning umumiy soni va manbalarda keltirilish o'rnida farqlar kuzatiladi. Qiyoslang:

“Tarixi muluki Ajam”da:

Va ashkoniylar bu muxtasarda o'n besh kishi bitildi va “Nizomut-tavorix”da o'n kishi (ta'kid bizniki – D.Y.) bitilibdur va Banokatinda o'n to'rt kishi bitilibdur va “Jomeut-tavorix”i Jaloliyda yigirma kishi va “Guzida”da Hamdulloh ul-mustavfi uch firqa qilib, yigirmi bir podshoh bitibdur va ani muluki tavoyifdin tutubdur.

“Tarjumayi tavorixi muluk” asarida:

Ve Eshkaniilerden bu muhtasharda on bes kisi yazildi. Ve Nizā-mū't-Tevārīh'de on yēdi kishi (ta'kid bizniki – D. Y.) yazildi. Ve Güzide'de Hamdullāh Müstevfī üç firqa kılup, yigirmi bir pādīshāh yazup ve anları Mülūk-i Tavāyif tūtopdur. (“Ushbu muxtasarda ashkoniylardan o'n besh kishi qayd etildi. “Nizomut-tavorix” asarida esa o'n yetti kishi yozilgan (ta'kid bizniki – D. Y.). “Guzida” asarida Hamdulloh Mustavfiy ularni uch guruhga ajratib, yigirma bir podshohni zikr etgan va ularni “Muluki tavoif” sifatida qayd qilgan.”).

Har bir podshoh qissasidan keyin keltirilgan she'riy parcha Navoiy asarida “she'r”, “bayt” yoki “masnaviy” nomi bilan, Fanoyi asarida esa faqat “masnaviy” nomi bilan keltirilgan. Ayrim o'rinlarda she'riy parchalar hajmida farqlar kuzatiladi. Xususan, Shaddod va Shadidga bag'ishlangan qissadan keyin Navoiyda 1 bayt, tarjimada 2 baytli she'r keltirilgan. Yoki Peshdodiylar tabaqasining so'nggi vakili Girshosbga atalgan 4-misra masnaviy ikki asarda butunlay farq qiladi. Qiyoslang:

Navoiyda:

Chu qolmas na zolim, na odil kishi.

Fanoyida:

Yétürdi aña da niçe dürlü gam.

Shuningdek, asar xotimasida keltirilgan va Husayn Bayqaroga bag'ishlangan masnaviy hajmida ham nomutanosiblik mavjud. Navoiy asarida masnaviy ellik baytdan iborat. Fanoyi tarjimasi esa qirq olti baytni tashkil etadi. Unda quyidagi to'rt bayt tushib qolgan:

*· Muni shohlig' desa ermas yiroq,
Ki g'aflatdin ogohliq yaxshiroq (12-bayt).*

*· Ki oni kiyurgon zamon qoshinga,
Borisin nisor ayladim boshinga (20-bayt).*

· *Valodat kunidin tutub to bu dam,
Borin sharh ila aylagaymen raqam* (34-bayt).

· *Debon borchaning mulku davronini,
Muayyan qilib davri poyonini* (37-bayt).

Xulosa

Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarining usmonli turk tiliga tarjimasini tadqiq etish asnosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asari XVI asrda Fanoyi taxallusli ijodkor tomonidan usmonli turk tiliga tarjima qilingan va ushbu tarjima matni fanda "Tarixi Fanoyi" (*Tarih-i Fenâyî*) yoki "Tarjumayi tavorixi muluk" (*Tercüme-i Tevârih-i Mülûk*) nomi bilan ataladi. Asarning tarjimoni mulla Fanoyi sharqiy turklardan bo'lib, uning asl ismi, yashagan hududi hamda tavalludi va vafoti sanalari haqida aniq ma'lumotlar yo'q. U forsiy tilni va Navoiy tili (chig'atoy turkchasi)ni yaxshi bilgan.

2. "Tarjumayi tavorixi muluk" asari bizgacha sakkiz nusxada yetib kelgan. Ulardan yettitasi qo'lyozma, bittasi matbaa nashr, ya'ni toshbosmadir. Bu nusxalarning eng qadimgisi 989/1581-yilga tegishli.

3. Tarjimaning asl nusxasi, ya'ni tarjimon nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Bizga faqat tarjimon nusxasidan ko'chirilgan nusxalargina ma'lum. Ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh Qohira guruhi bo'lib, ular chig'atoy tilidagi asl matnga til va imlo nuqtayi nazaridan yaqinroqdir. Ikkinchi guruh esa noma'lum nusxadan ko'chirilgan Bolonya guruhi bo'lib, qolgan nusxalar shu nusxa asosida kitobat qilingan va ulardagi matnda Onado'li turkchasining yetakchilik qilishi kuzatiladi.

4. Fanoyi asarni usmonli turk tiliga tarjima qilish jarayonida asliyatdagi matnni asosan saqlab qolgan. Faqat asarning boshiga kichik muqaddima ilova qilib, Allohga hamd, Payg'ambarga na'tdan so'ng asarning tarjima qilinishi sababini qisqacha bayon qilgan. Tarjima matnidagi ayrim o'zgarishlar, xususan, unga ba'zi ma'lumotlarni qo'shish, ba'zan esa ayrim o'rinlarni qisqartirish bilan bog'liq o'rinlar tarjimonning o'zi yoki keyinchalik xattotlar tomonidan amalga oshirilganligi ma'lum emas.

Umuman olganda, Navoiy asarining XVI asrda usmonli turk tiliga tarjima qilinishi buyuk mutafakkirning tarixnavislik faoliyati Usmonlilar saltanatida yuqori qiymatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

- Alisher Navoiy: qomusiy lug'at.* 2016. 1–2-jildlar. Mas'ul muharrir Sh. Sirojiddinov. Toshkent: Sharq.
- Alisher Navoiy. 2000. *Muhokamat ul-lug'atayn. Tarixi anbiyo va hukamo. Tarixi muluki Ajam.* MAT. 20 jildlik, 16-jild. Toshkent: Fan.
- Altun, H. O. 2020. *Tercüme-i Tevârih-i Mülûk. Nevâyî'nin Fars Hükümdarları Tarihi (İnceleme-Tenkitli Metin-Dizin).* İstanbul.
- Dede, E. 2000. *Tezkire-i Şu'arâ-yı Mevleviyye, İnceleme-Metin* (haz. İlhan Genç). Ankara.
- Esir, H. A. 2014. Bursalı Lâmiî Çelebi'nin *Ferhâd u Şîrîn'inin Ali Şîr Nevaî'nin Ferhâd u Şîrîn'i ile Mukayesesi.* TUDED, C. L, S. 50, s. 39–64.
- Hakimov, M. 1991. *Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar.* Toshkent: Fan.
- Kleinmichel, S. 2006. Ali Şîr Nevâyî ve Osmanlı Şairleri (Çev. Nurettin Demir). *Türk Edebiyatı Tarihi I* (Ed. T. S. Halman, O. Horata ve diğerleri) ichida (s. 683–691). İstanbul: T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları Kültür Eserleri Dizisi: 399.
- Levend, A. S. 1966. *Ali Şîr Nevaî. Türk Dili ve Edebiyat Dergisi*, 173. TDK Yay.
- Levend, A. S. 1958. *Türkiye Kitaplıklarındaki Nevâî Yazmaları. TDAY-Belleten.* TDK Yay.
- Levend, A. S. 1984. *Divan edebiyatı.* İstanbul.
- Salohiy, D. 2006. Navoiyning Rum diyoriga tuhfa-si. *O'ZAS*, № 5.
- Türk, V. 2010. Lehçeler Arası İlişkiler ve Oğuz Türkçesinde bir Nevâî Eseri. *TÜBAR*, S. 28, s. 395 – 408.
- Türk, V. 2021. Türkiye'de Ali Şîr Nevâyî Çalışmaları. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, 52, 403 – 442.
- Yazar, S. 2011. *Anadolu Sahası Klâsik Türk Edebiyatında Tercüme ve Şerh Geleneği.* İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü (Basılmamış Doktora Tezi). İstanbul.
- Yıldız, A. 2003. Divan Edebiyatında Fenâyî Mahlaslı Şairler. *Cumhuriyet Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 7(1): 345 – 355.
- Xalilov, L. 1975. *Alisher Navoiy "Tarixi muluki Ajam" asarining tekstologik tadqiqoti.* PhD dissertatsiyasi. Toshkent.
- Çetindağ, Y. 2002. *Ali Şîr Nevâyî'nin Batı Türkçesi Divan Edebiyatına Tesiri (XVI. Yüzyıl Sonuna Kadar).* Gazi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Ankara.
- Çetindağ, Y. 2010. Ali Şîr Nevâyî–Ahmet Paşa Etkileşimi ve Otuz Üç Gazel. *Bursalı Şair Ahmet Paşa ve Dönemi Sempozyum Bildirileri.* Bursa: Bursa Büyükşehir Belediyesi Yayınları.
- Erkinov, A. 2019. Navoiy ijodining xorijlik tadqiqotchilari. *O'zbek tili va adabiyoti* 2: 34 – 39. Toshkent.
- Yusupova, D. 2021. *Alisher Navoiy "Xamsa"sining usmonli turk adabiyotiga ta'siri. "Xamsa" poetikasi: vazn, qofiya va mazmun mushtarakligi.* Toshkent: Tamaddun.
- Qayumov, A. 2011. *Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar.* Toshkent: Sharq.
- O'zbek adabiyoti tarixi.* 1977. Besh jildlik, 2-jild (XV asrning ikkinchi yarmi). Toshkent: Fan.

Fanoyī Shīrāzī as the Ottoman Translator of *Tārīkh-i Mulūk-i 'Ajam*

Dilnavoz Yusupova¹

Abstract

This article researches issues related to the sixteenth-century Ottoman Turkish translation of Alisher Navo'i's *Tārīkh-i Mulūk-i 'Ajam* carried out by Fanoī Sheroziy. The author advances three hypotheses concerning the identity of the translator writing under the pen name Fanoī and seeks to substantiate them on the basis of surviving manuscript copies of the work. Eight copies of *Tarjumayi Tavārīkh-i Mulūk* are currently known to scholarship: seven manuscripts and one lithographic (stone-printed) edition. The earliest of these copies dates to 989/1581. The original translator's autograph has not survived, and all extant copies are derived from that lost exemplar. By comparing Navo'i's original text with Fanoī's translation, the author identifies a number of textual divergences. The study argues that, while the source text is largely preserved in Fanoī's translation, certain additions and occasional omissions may be attributable either to the translator himself or to later scribes who copied the text.

Key words: *literary influence, translation, manuscript copies, lithographic edition, history of kings.*

References

- Alisher Navoiy: *qomusiy lug'at*. 2016. 1–2-jildlar. Mas'ul muharrir Sh. Sirojiddinov. Toshkent: Sharq.
- Alisher Navoiy. 2000. *Muhokamat ul-lug'atayn. Tarixi anbiyo va hukamo. Tarixi muluki Ajam*. MAT. 20 jildlik, 16-jild. Toshkent: Fan.
- Altun, H. O. 2020. *Tercüme-i Tevârîh-i Mülûk. Nevâyî'nin Fars Hükümdarları Tarihi (İnceleme-Tenkitli Metin-Dizin)*. İstanbul.
- Dede, E. 2000. *Tezkire-i Şu'arâ-yı Mevleviyye, İnceleme-Metin* (haz. İlhan Genç). Ankara.
- Esir, H. A. 2014. Bursalı Lâmiî Çelebi'nin *Ferhâd u Şîrîn'inin Ali Şîr Nevaî'nin Ferhâd u Şîrîn'i ile Mukayesesi*. *TUDED*, C. L, S. 50, s. 39–64.
- Hakimov, M. 1991. *Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar*. Toshkent: Fan.
- Kleinmichel, S. 2006. Ali Şir Nevâyî ve Osmanlı Şairleri (Çev. Nurettin

¹ Dilnavoz R. Yusupova – Doctor of Philological Sciences, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-mail: mumtoza_dil@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-9955-0891

For citation: Yusupova, D. R. "Fanoyī Shīrāzī as the Ottoman Translator of *Tārīkh-i Mulūk-i 'Ajam*". *Golden Scripts* 4: 16 – 28.

- Demir). *Türk Edebiyatı Tarihi I* (Ed. T. S. Halman, O. Horata ve diğerleri) ichida (s. 683–691). İstanbul: T.C. Kültür ve Turizm Bakanlığı Yayınları Kültür Eserleri Dizisi: 399.
- Levend, A. S. 1966. *Ali Şir Nevaî. Türk Dili ve Edebiyat Dergisi*, 173. TDK Yay.
- Levend, A. S. 1958. *Türkiye Kitaplıklarındaki Nevâî Yazmaları. TDAY-Belleten*. TDK Yay.
- Levend, A. S. 1984. *Divan edebiyatı*. İstanbul.
- Salohiy, D. 2006. Navoiyning Rum diyoriga tuhfa-si. *O'ZAS*, № 5.
- Türk, V. 2010. Lehçeler Arası İlişkiler ve Oğuz Türkçesinde bir Nevâî Eseri. *TÜBAR*, S. 28, s. 395 – 408.
- Türk, V. 2021. Türkiye’de Ali Şir Nevâyî Çalışmaları. *Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi*, 52, 403 – 442.
- Yazar, S. 2011. *Anadolu Sahası Klâsik Türk Edebiyatında Tercüme ve Şerh Geleneği*. İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü (Basılmamış Doktora Tezi). İstanbul.
- Yıldız, A. 2003. Divan Edebiyatında Fenâyî Mahlaslı Şairler. *Cumhuriyet Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 7(1): 345 – 355.
- Xalilov, L. 1975. *Alisher Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarining tekstologik tadqiqoti*. PhD dissertatsiyasi. Toshkent.
- Çetindağ, Y. 2002. *Ali Şir Nevâyî’nin Batı Türkçesi Divan Edebiyatına Tesiri (XVI. Yüzyıl Sonuna Kadar)*. Gazi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Doktora Tezi, Ankara.
- Çetindağ, Y. 2010. Ali Şir Nevâyî–Ahmet Paşa Etkileşimi ve Otuz Üç Gazel. *Bursalı Şair Ahmet Paşa ve Dönemi Sempozyum Bildirileri*. Bursa: Bursa Büyükşehir Belediyesi Yayınları.
- Erkinov, A. 2019. Navoiy ijodining xorijlik tadqiqotchilari. *O'zbek tili va adabiyoti* 2: 34 – 39. Toshkent.
- Yusupova, D. 2021. *Alisher Navoiy “Xamsa”sining usmonli turk adabiyotiga ta’siri. “Xamsa” poetikasi: vazn, qofiya va mazmun mushtarakligi*. Toshkent: Tamaddun.
- Qayumov, A. 2011. *Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar*. Toshkent: Sharq.
- O'zbek adabiyoti tarixi*. 1977. Besh jildlik, 2-jild (XV asrning ikkinchi yarmi). Toshkent: Fan.